

**UNCITRAL VA UNING MAMLAKATIMIZ DAVLAT
XARIDLARINI TARTIBGA SOLISHDAGI O'RNI**

Anarkulov Azizjan Davlatkulovich

Jamoat xavfsizligi universiteti,

“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi dosenti, i.f.f.d. (PhD)

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Jamoat xavfsizligi universiteti,

“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

E-mail: shavkatjonusmonov3007@gmail.com

ANNOTASIYA

Maqolada davlat xaridlarini tashkil etish masalalri yoritilgan, unda xalqaro tajribani, jumladan, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha Komissiyasining (UNCITRAL) model qonunchiliginini asosiy qoidalari o‘rganilgan. Xalqaro savdoni tartibga soluvchi milliy va mintaqaviy qoidalarni uyg‘unlashtirish uchun global standartlar va qoidalar qabul qilish tarixi yoritilgan. Ommaviy xaridlar bo‘yicha namunaviy “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida”gi Qonuning asosiy tamoyillari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat xaridlari, davlat xaridari jarayoni, ommaviy xaridlar, namunaviy qonun, qonuning asosiy tamoyillari, xaridlarni amalga oshirishning tavsiyaviy usullari, UNCITRAL.

**UNCITRAL И ЕГО РОЛЬ В РЕГУЛИРОВАНИИ
ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК НАШЕЙ СТРАНЫ**

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются вопросы организации государственных закупок, изучается международный опыт, в том числе основные положения модельного законодательства комиссии ООН по праву международной торговли (ЮНСИТРАЛ). Освещается история принятия глобальных стандартов и правил для гармонизации национальных и региональных правил, регулирующих международную торговлю. Раскрыты основные принципы Типового закона “О закупках товаров и услуг” по оптовым закупкам.

Ключевые слова: государственные закупки, процесс государственных закупок, публичные закупки, основные принципы закона, рекомендуемые методы закупок, UNCITRAL.

UNCITRAL AND ITS ROLE IN THE REGULATION OF PUBLIC PROCUREMENT OF OUR COUNTRY

ANNOTATION

The article covers the issue of the organization of Public Procurement, which explores international experience, including the basic provisions of the model legislation of the UN Commission on international trade law (UNCITRAL). The history of the adoption of global standards and regulations to harmonize national and regional regulations governing international trade is covered. The basic principles of the model law on public procurement are revealed.

Keywords: public procurement, public procurement process, Model Law, basic principles of law, recommendation methods of procurement implementation, UNCITRAL.

Mamlakat miqyosidagi har qanday jarayon shu davlat iqtisodiy-ijtimoiy hayoti uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki bu jarayonlarning natijasi, salbiy yoki ijobiy bo‘lishiga qarab, mamlakat aholisiga, davlatning iqtisodiy mexanizmi va uning tarkibiy qismlariga katta ta’sir ko‘rsatadi[1]. Davlat xaridari jarayoni ham ulkan hamda murakkab mexanizm bo‘lib, uning to‘g‘ri tashkil etilganligi va mamlakat iqtisodiyotiga zarar emas, balki yuqori samara keltirishi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham makrodarajadagi qanday jarayon yuz bermasin, shu jumladan, davlat xaridari ham, qonunchilik bilan mustahkamlab qo‘yilishi zarur. Aynan qonunchilik davlat xaridari mexanizmini takomillashtirish va uning nazoratini tashkil etishga ko‘maklashadi hamda davlat xaridari subyektlarining manfaatlari nohaq buzilishi, qabul qilingan qonun-qoidalardan chetlanishlarni oldini oladi.

O‘zbekiston Respublikasida Davlat xaridarini tashkil etish va tartibga solishning qator huquqiy-normativ hujjatlari qabul qilingan. Bu qonun hujjatlari orqali davlat budjeti xarajatlarining va ustavida davlat ulushi bor korxonalar mablag‘larining samarali, maqsadli sarflanishi hamda ularning shaffofligi ta’minlanadi.

Mamlakatimizda o‘tgan davr mobaynida xalqaro tajriba va iqtisodiy islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda davlat xaridlarini tashkil etish bo‘yicha o‘ziga xos tizim shakllantirildi. Bunda asosiy urg‘u budget mablag‘laridan samarali foydalanish, xarid jarayonida kichik biznes subyektlariga ko‘proq imtiyozlar berish, hamda davlat xaridlari tizimining mavjud mexanizmini xalqaro andozalarga mos holda tashkil etish xususiyatlariga qaratildi[2].

«Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuning qabul qilinishi davlat xaridlari ochiqligini va shaffofligini hamda bu sohada tadbirkorlarning raqobat kurashuvini ta’minalash bilan birga, davlat budjeti, markazlashtirilgan manbalar

va davlat ulushiga ega bo‘lgan korxonalar mablag‘laridan samarali foydalanishga imkon yaratmoqda.

Qonun davlat xaridlarini amalga oshirishning amaldagi tajribasini hamda xalqaro tajribani, jumladan, BMTning Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha Komissiyasining (UNCITRAL) model qonunchiligining asosiy qoidalarini, Evropa Ittifoqi, AQSh, Rossiya, Belarus, Qozog‘iston va boshqa davlatlar qonunchiligini hisobga olgan. Xalqaro tashkilotlar, Xalqaro bank, ekspert va biznes-hamjamiyati, vazirlik va idoralar vakillari takliflari inobatga olingan[3].

Qonunni tayyorlashda BMT xalqaro savdo huquqi bo‘yicha Komissiyasining (UNCITRAL) ommaviy xaridlar bo‘yicha namunaviy qonuni asosiy qoidalari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tavsiyalari hamda qator xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanilgan.

Xalqaro miqyosdagi ta’riflarga e’tibor qaratsak, Jahonda davlat xaridlarinig shakllanishi va rivojlanishidagi eng muhim hujjati 1994 yil BMTning xalqaro savdo huquqi Komissiyasining 27-sessiyasida (UNCITRAL - United Nations Commission on International Trade Law) qabul qilingan Namunaviy “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida” Qonuni[4] hamda 2011 yil 09 dekabr kunidagi 82-yalpi majlisida BMT Bosh Assambleyasining 66/95 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasining “Ommaviy xaridlar to‘g‘risida”gi namunaviy qonuni mavjud xaridlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishda davlatimizga katta yordam beradi va uyg‘un xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishga va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga olib keladi[5].

1960-yillarda jahon savdosi keskin kengaya boshlaganida, dunyo mamlakatlari hukumatlari xalqaro savdoni tartibga soluvchi milliy va mintaqaviy qoidalarni uyg‘unlashtirish uchun global standartlar va qoidalari qabul qilishga zaruriyat sezishadi. UNCITRAL (www.uncitral.org)ning dastlabki a’zolari 29 shtatdan iborat bo‘lib, 1973-yilda 36 taga, 2004-yilda esa yana 60 taga kengaytirildi. UNCITRALga a’zo davlatlar turli huquqiy an’analar va iqtisodiy rivojlanish darajalarini, shuningdek, turli geografik mintaqalarni ifodalaydi. Hozirgi kunda Komissiya tarkibiga bosh Assambleya tomonidan saylanadigan 70 a’zo davlat kiradi. Komissiya a’zolari tarkibi dunyoning turli geografik mintaqalari va asosiy iqtisodiy va huquqiy tizimlarning vakilligini ta’minlaydi. Komissiya a’zolari olti yilga saylanadi, komissiya a’zolarining yarmi har uch yilda bir marta tugaydi.

Davlatlarga o‘z milliy qonunlarining bir qismi sifatida qabul qilish uchun tavsiya etilgan qonunchilik matni hisoblanadigan Namunaviy qonunlar UNCITRAL tomonidan belgilanadi. Hozirgi kunda quyidagi namunaviy qonunlar kuchda:

❖ UNCITRALning Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risidagi namunaviy qonuni (1985) (matn);

- ❖ Xalqaro kredit o‘tkazmalarini to‘g‘risidagi UNCITRAL namunaviy qonuni (1992);
- ❖ UNCITRALning “Tovarlar, qurilish va xizmatlarni xarid qilish to‘g‘risida”gi namunaviy qonuni (1994);
- ❖ UNCITRALning elektron tijorat to‘g‘risidagi namunaviy qonuni (1996) Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo‘yicha komissiyasining 29-sessiyasida qabul qilingan va Bosh Assambleyaning 1996 yil 16 dekabrdagi 51/162 rezolyutsiyasi bilan tavsiya etilgan;
- ❖ UNCITRALning Transchegaraviy to‘lovga layoqatsizligi to‘g‘risidagi namunaviy qonuni (1997)
- ❖ UNCITRALning elektron imzolar to‘g‘risidagi namunaviy qonuni (2001)
- ❖ UNCITRALning Xalqaro tijorat kelishuvi to‘g‘risidagi namunaviy qonuni (2002)
- ❖ Xususiy moliyalashtiriladigan infratuzilma loyihalari bo‘yicha namunaviy qonunchilik qoidalari (2003 y.)
- ❖ UNCITRALning Kafolatlangan operatsiyalar to‘g‘risidagi namunaviy qonuni (2016)
- ❖ UNCITRALning Elektron o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan yozuvlar to‘g‘risidagi namunaviy qonuni (2017)
- ❖ To‘lovga layoqatsizlik bilan bog‘liq sud qarorlarini tan olish va ijro etish to‘g‘risidagi UNCITRAL namunaviy qonuni (2018)
- ❖ UNCITRAL Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi namunaviy qonunchilik qoidalari (2020).

Xalqaro savdo va investitsiyalarda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Xalqaro Savdo Huquqi Komissiyasi (UNCITRAL) ning ommaviy xaridlar bo‘yicha namunaviy “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida” Qonuni Davlat xaridlari munosabatlarni tartibga soluvchi eng asosiy xalqaro meyoriy hujjat hisoblanadi.

UNCITRAL jaxon mamlakatlarining aksariyatida qabul qilingan tijorat faoliyati bilan shug‘ullanish uchun elektron vositalardan foydalanishni ta‘minlash va osonlashtirish uchun qonun hujjatlari to‘plamini tayyorladi. Eng keng tarqalgan matn UNCITRALning Elektron tijorat to‘g‘risidagi namunaviy qonuni (1996) bo‘lib, u elektron va qog‘ozdagи ma’lumotlarga teng munosabatda bo‘lish qoidalari, shuningdek, elektron bitimlar va jarayonlarni huquqiy tan olish qoidalari belgilaydi. Elektron vositalardan foydalanishni kamsitmaslik, funksional ekvivalentlik va texnologiyaning betarafligini UNCITRALning “Elektron imzolar to‘g‘risida”gi namunaviy qonuni (2001-yil) elektron imzolardan foydalanish bo‘yicha qo‘srimcha qoidalarni nazarda tutadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro shartnomalarda elektron kommunikatsiyalardan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyasi (Nyu-York, 2005 yil) xalqaro savdoda elektron shartnomalar tuzish uchun huquqiy ishonchni ta’minlaydigan birinchi shartnomani taklif qilish uchun avvaldan mavjud bo‘lgan UNCITRAL matnlariga asoslanadi.

UNCITRALning “Elektron o‘tkazuvchan yozuvlar to‘g‘risida”gi namunaviy qonuni (2017-yil) konosamentlar, veksellar, cheklar, veksellar va ombor kvitansiyalari kabi o‘tkaziluvchi hujjatlar va vositalardan elektron shaklda foydalanishni ta’minlash va osonlashtirish uchun xuddi shu tamoyillarni qo‘llaydi.

2022 yilda UNCITRALning Identifikatsiyani boshqarish va trast xizmatlaridan foydalanish va transchegaraviy tan olinish to‘g‘risidagi namunaviy qonunini qabul qildi, bu esa birinchi global miqyosda kelishilgan yagona huquqiy hujjatni bo‘lib jismoniy va yuridik shaxslarni onlayn tarzda aniqlash, shuningdek, elektron shaklda, shu jumladan chegaralar orqali ma’lumotlar sifati bo‘yicha kafolatlar berish uchun asos hisoblanadi.

2022 yilda UNCITRAL kotibiyati tomonidan sun’iy intellekt, ma’lumotlar, onlayn platformalar, raqamli aktivlar va markazlashtirilmagan tizimlar mavzularida olib borilgan tadqiqot ishlarini qayd etuvchi raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq huquqiy masalalar taksonomiyasini nashr etishni ma’qulladi.

Yagona oynaning huquqiy jihatlari va qog‘ozsiz savdoga ko‘maklashish bo‘yicha ham boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Namunaviy “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida” Qonuni 1994 yil BMTning xalqaro savdo huquqi Komissiyasining 27-sessiyasida qabul qilingan bo‘lib, u bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat va jamoat uchun xaridni amalga oshirish buyicha xalqaro qoidalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Mazkur Qonun bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davlatlarda, xususan, Sharqiy Evropa mamlakatlarda davlat xaridlarini tashkil etish bo‘yicha na’muna-shablon sifatida ishlab chiqilgan. Qonunning asosiy talablari va tamoyillarini bugungi kunda nafaqat Evropa mamlakatlari, balki Osiyo davlatlari ham xarid tizimlarida keng qo‘llamoqdalar. Qonunda xarid tizimida sog‘lom raqobatni rivojlantirish, Davlat xaridarini amalga oshirishda yetkazib beruvchilarga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish, xarid jaryonini ochiqliligi, oshkoraligi hamda obyektivligini ta’minlashdan iborat. Ushbu qonun, milliy xavfsizlik va mudofaa sohalaridan tashqari, barcha sohalarda xaridni amalga oshirish uchun qo‘llashni nazarda tutadi.

BMT xalqaro savdo huquqi bo‘yicha Komissiyasining (UNCITRAL) ommaviy xaridlar bo‘yicha namunaviy “Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to‘g‘risida” Qonuning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. **Ochiqlilik va shaffoflik** – xarid to‘g‘risida yozma shakldagi hisobot yuritilishi hamda sotib olinadigan tovar (ish, xizmat) haqida oldindan ommaviy e’lon qilish;
2. **Malakaviy talab** – yetkazib beruvchilarga qo‘yilgan malakaviy talablarni tartibga solish, ular malakasini aniqlash mezonlari va tartibi, qo‘yilgan talabni xarid bo‘yicha e’lon bilan bir vaqtida ma’lum qilish;
3. **Xaridni amalga oshirish shaklini ma’lum qilish** – xaridlar ochiq yoki yopiq shaklda amalga oshirilishi, tanlovlardan bir yoki ikki bosqichda bo‘lishi ishtirokchilar e’tiboriga oldindan ma’lum qilish;
4. **Takliflarni ko‘rib chiqish va baholash tartibidan xabardor qilish** – savdolarda ishtirok etmoqchi bo‘lgan ishtirokchilarni bildirilgan takliflarni ko‘rib chiqish va saralash mezonlari hamda g‘olibga qo‘yilgan talablar bilan oldindan xabardor qilish;

5. **Munozaralarni hal etish** – Davlat xaridari bo‘yicha savdolarni tashkil etish, o‘tkazish, shartnomalar tuzish va shartnomani bajarish bo‘yicha yuzaga keladigan munozaralar, nizolar, fors-major holatlarni hal qilish tatibi bilan ishtirokchilar oldindan tanishtirilgan bo‘lishi lozim[6].

Mazkur hujjatdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad, xalqaro savdoni rivojlantirish, xorijiy mol yetkazib beruvchilarni diskriminatsiya qilishni oldini olish, xarid jarayonini tartibga soluvchi qonunchilikni ochiqligini ta’minlashdan iborat.

Barcha hududlarda 1994 yildagi namunaviy qonun xaridlar to‘g‘risidagi qonunchilikni isloh qilish va modernizatsiya qilish vositasi sifatida ishlatilgan. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, u keng va muvaffaqiyatli qo‘llanilgan. Ushbu namunaviy qonun dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlarida xaridlar to‘g‘risidagi qonunchilikning asosini tashkil etdi va uning umumiyligi tamoyillari u yoki bu darajada ko‘proq davlatlarning qonunlarida aks ettirilgan.

O‘zining o‘ttiz ettinchi sessiyasida (Nyu-York, 2004 yil 14-25 iyun) UNCITRAL 1994 yilgi namunaviy qonunni yangi amaliyot turlarini, xususan, elektron ommaviy xaridlardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan amaliyotlarni hisobga olish uchun foydali ravishda yangilash mumkinligi to‘g‘risida qaror chiqardi va 1994 yilgi namunaviy qonunni qo‘llash tajribasi qonunchilikni uning asosiy tamoyillaridan chetga chiqmasdan isloh qilish uchun asoslantirildi. UNCITRAL tomonidan qirq to‘rtinchi sessiyasida (Vena, 2011 yil 1 iyul) qabul qilingan UNCITRALning “Ommaviy xaridlar to‘g‘risida”gi namunaviy qonuni uning 1994 yilgi namunaviy qonunni takomillashtirish bo‘yicha ishi natijasidir.

Namunaviy qonun ikki tomonlama maqsadga ega: birinchidan, u barcha davlatlar uchun ularning sotib olish qonunlari va amaliyotini baholash va modernizatsiya qilishda namuna bo‘lib xizmat qiladi va agar mavjud bo‘lmasa, sotib olish to‘g‘risidagi qonunchilikni targ‘ib qiladi. Ikkinci maqsad-xalqaro rejadagi xaridlar rejimini

muvofiglashtirishni qo'llab-quvvatlash va shu bilan xalqaro savdoni rivojlantirishga ko'maklashish. Ushbu maqsadlarga erishish vositasi sifatida namunaviy qonunning potensiali, agar u barcha davlatlar tomonidan qo'llanilsa, to'liq amalga oshiriladi va bu ushbu matn biron bir rivojlanish darajasida bo'lgan mamlakatlar yoki mamlakatlarning biron bir guruhiga mo'ljallangan bo'lishi kerak emasligi va bu muhim emasligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, o'tish davri iqtisodiyoti bo'lgan mamlakatlarda sotib olish to'g'risidagi qonunchilikni qabul qilish ham iqtisodiyotni bozor yo'llariga o'tkazishni tezlashtirish jarayonining bir qismidir va shu munosabat bilan namunaviy qonun bunday mamlakatlar iqtisodiyotidagi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarni samarali muvofiglashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Namunaviy qonun asosan ichki qonunchilikni ishlab chiqishda foydalanish uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga, UNCITRAL ommaviy xaridlar bilan bog'liq boshqa xalqaro hujjatlar va bitimlar ushbu xalqaro hujjatlar va bitimlarning taraflari bo'lgan davlatlarda sotib olish to'g'risidagi milliy qonunchilikka ta'sir ko'rsatadigan majburiyatlarni belgilashi ma'lum. UNCITRAL «Tovarlar va xizmatlami sotib olish to'g'risida» qonuni bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat va jamoat uchun xaridni amalga oshirish buyicha xalqaro tajribani o'zida mujassamlashtiradi. 1994 yilgi namunaviy qonun dunyoning barcha mintaqalarida xaridlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish va modernizatsiya qilish vositasi sifatida ishlatilgan bo'lsa-da, keng e'tirof etilgan va samarali ekanligi isbotlangan bo'lsa-da, u UNCITRALning "Ommaviy xaridlar to'g'risida"gi namunaviy qonuni (2011) bilan yangilandi. 2011 yilgi namunaviy qonunning muhim qo'shimcha xususiyati shundaki, u Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi (2005 yilda kuchga kirgan) xaridlarga oid talablarining bajarilishini ta'minlashga qaratilgan.

Unga ko'ra xarid qiluvchi tashkilot xaridlarni amalga oshirishda quyidagi tavsiyaviy usullardan foydalanishi mumkin:

- a) ochiq savdolar;
- b) cheklangan ishtirokli savdolar;
- c) kotirovkalarni so'rash;
- d) muzokaralarsiz takliflarni so'rash;
- e) ikki bosqichli savdolar;
- f) dialog bilan taklif so'rovlari;
- g) ketma-ket muzokaralar o'tkazish bilan takliflar so'rovi;
- h) raqobatbardosh muzokaralar;
- i) elektron reversiv (pasayish) kim oshdi (auksion) savdosи;
- j) bitta manbadan xaridlar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, davlat xaridlarning huquqiy asoslari mamlakatimizda tartibga solindi, jahon andozalariga moslandi, korrupsiyadan yiroq bo'lgan elektron xarid tizimi yaratildi.

Shuningdek chet el kompaniyalarining milliy davlat xaridlari bozorlariga kirishini yaxshilash bo'yicha tashabbuslar, shuningdek, tashqi savdoni liberallashtirishning boshqa jarayonlari, xalqaro hamkorlikning turli darajalarida rivojlanmoqda. "UNCITRAL Model Law of Goods, Construction and Services" BMT komissiyasining namunaviy qonuni, shuningdek, JST to'g'risidagi davlat xaridlari to'g'risidagi bitim (GPA) ishtirokchi davlatlarning davlat xaridlari mexanizmlarini xalqaro darajada uyg'unlashtirish va liberallashtirishga qaratilgan qonuniy vosita bo'lib qolmoqda.

Davlat xaridlarini yanada takomillashtirish, uning imkoniyatlarini kengaytirish, ochiqlik va oshkorlikni ta'minlash, tadbirkorlarga keng imkoniyat berish borasida Davlat xaridlari tizimini yanada rivojlantirish uchun horijiy tajribadan foydalanib yuqorida o'rganilgan uslublarini tadbiq etishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova G.A. G'aznachilik tizimida davlat xaridining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari//Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. – T., 2019. - № 2 (aprel).
2. U.Yu.O'roqov, E.Sh.Shadmanov, D.Sh.Bababekova. Davlat xaridlarini boshqarish. O'quv qo'llanma. T. - O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti: 2022. 214 b.
3. O'roqov U.Yu., Shadmanov E.Sh., Bababekova D.Sh. Davlat xaridari. O'quv qo'llanma. – T.: JXU, 2022. – 208 b.
4. UNCITRAL – (United Nations Commission on International Trade Law) qabul qilingan Namunaviy "Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to'g'risida" Qonuni.
5. Usmonov Shavkatjon Shukurovich. (2024). Davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish va uning davlatimiz iqtisodiyotida tutgan o'rni. Journal of New Century Innovations, 61(2), 169-178. b.
6. BMT xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasining (UNCITRAL) ommaviy xaridlar bo'yicha namunaviy "Tovarlar va xizmatlarni sotib olish to'g'risida" Qonuni.